




Mavzu: Qishloq xo'jaligida bozor va bozor munosabatlari

Uchqun Alimov



1. Qishloq ho'jaligida bozor munosabatlari tushunchasi, roli va ularni shakllantirish.

2. Qishloq ho'jaligida bozor munosabatlarini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmi

BOZOR???

Sotuvchilar bilan haridorlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash munosabatlari, ishlab chiqarish bilan iste'molni o'zaro bog'lovchi mexanizm.



Bozor iqtisodiyoti bu erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyot bo‘lib resurslarga xususiy mulkchilik, iqtisodiy faoliyatda va tadbirkorlikda erkinlik, iqtisodiy jarayonlarni tartiblashda va uyg‘unlashtirishda bozor mexanizmidan foydalanish bilan tavsiflanadi.



Bozor mehanizmi – o'z tarkibiga resurslarni shakllantirish va taqsimlash, tovarlar va xizmatlar sifatini baholash, mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlarga baho shakllanishidagi iqtisodiy vositalar hamda ularni samarali boshqarish usullarni oladi



Jahon tajribasida bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha yo'llari umumlashtirilib, quyidagi uchta asosiy turga bo'linadi:

- 1) rivojlangan mamlakatlar yo'li;
- 2) rivojlanayotgan mamlakatlar yo'li;
- 3) sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'li;
- 4) sotsializm g'oyalarini samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish mexanizmi bilan qo'shib olib borish yo'li (Xitoy, Vetnam).

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning **asosiy yo'nalishlari** quyidagilardan iborat:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohotlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohoti;
- boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti;
- ijtimoiy islohotlar.

BOZOR

- bozorda ishtirok etuvchi sub'ektlar (sotuvchilar, haridorlar, vositachilar)dan;
- ob'ektlar (tovar va resurslar bozorini turlari, yer, ishchi kuchi, binolar)dan;
- sub'ektlar orasidagi manfaatli ob'ektiv iqtisodiy aloqalar, baholar shakllanishi tizimi va boshqa vositalardan iborat bo'ladi.

Bozorda sotuvchi va haridorlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalar o'z o'rnida sotuvchi va iste'molchilarga aniq vazifalarni yuklaydi, ya'ni o'zlariga ma'qul kelgan shartnomaga asosan, sotuvchi mahsulot yoki hizmatlarni sotish muddatlari hamda tovarni yetkazib berish majburiyatlarini olsa, haridor esa o'z navbatida, tovarni oldindan kelishilgan narhlarda sotib olish majburiyatini o'z zimmasigi oladi.

Ishlab chiqarish vositalari, hom ashyo va xizmatlar bozorida, bozor munosabatlari rivojlanib borgan sari, mahsulot ishlab chiqaruvchi va uni iste'mol qiluvchilar orasida bevosita iqtisodiy munosabatlar kuchayib boradi.

Bozor infratuzilmasini rivojlanishi esa bozordagi mahsulot va xizmatlarni erkin harakat qilishini ta'minlaydi.

Agrar bozorni arzon va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish uchun mahsulotni ishlab chiqaruvchi hamda iste'mol o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarini ta'minlashga xizmat qiladigan bozor mexanizmini shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi

QISHLOQ XO'JALIGIDA MULK SHAKLLARI

1992 yilgacha

Davlat mulki

Kolxoz-kooperativ mulki

Shaxsiy mulk

Mustaqillik yillarida

Davlat mulki

Jamoa mulki

Hususiy, shaxsiy mulk

Aralash mulk

1992 yilda davlat mulki 99,9 %

Qishloq xo'jaligida

2003 yilda nodavlat mulk 99%

Qishloq xo`jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning tarkibi

Yillar	Barcha toifadagi xo`jaliklar	Shu jumladan:								
		Fermer xo`jaliklari	Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo`jaliklari	Qishloq xo`jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	Fermer xo`jaliklari	Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo`jaliklari	Qishloq xo`jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	Fermer xo`jaliklari	Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo`jaliklari	Qishloq xo`jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
		Jami			Dehqonchilik			Chorvachilik		
2000	100	5,5	66,7	27,8	9,7	43,9	46,4	1,3	89,7	9
2001	100	7,3	65,4	27,3	12,8	42,1	45,1	1,5	90,2	8,3
2002	100	10	64	26	17,8	39,4	42,8	2	89,3	8,7
2018	100	26,0	71,2	2,8	45,3	52,2	2,5	4,6	92,3	3,1
2019	100	27,9	68,3	3,8	49,2	46,8	4,0	5,1	91,2	3,7
2020 yil yanvar-dekabr	100	28,2	67,4	4,4	52,0	42,3	5,7	4,9	92,0	3,1
2021 yil yanvar-iyun ²⁾	100	18,5	78,5	3,0	38,1	58,8	3,1	5,0	92,1	2,9

AGRAR BOZORLAR TARKIBI

qishloq ho'jaligi mahsulotlari bozorlari



agrosurslar bozorlari



agrohizmatlar bozorlari



agrar intellektual mulk bozorlari



So'nggi 20 yil ichida qishloq ho'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti hajmi deyarli o'zgarishsiz qoldi (1995 yilda 2,2 mlrd. AQSH dollari, 2016 yilda 2,4 mlrd. AQSH dollari va 2018 yilda 2,9 mlrd. AQSH dollari). Biroq, ushbu davr mobaynida eksport nomenklaturasi kengaydi.

1995 yilda asosiy eksport mahsuloti paxta tolasi bo'lgan bo'lsa, eksport tushumining 90 foizini tashkil etgan. 2018 yilda oziq-ovqat va to'qimachilik mahsulotlari umumiy eksport hajmida to'qimachilik va paxtachilik mahsulotlarining ulushi 55 foizni, paxta tolasi 8 foizni, qishloq ho'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari (asosan meva-sabzavot mahsulotlari) 30 foizni tashkil etgan.

O`zbekiston Respublikasi bo`yicha dehqon bozorlari va do`konlardagi ayrim tovarlarning o`rtacha narxlari

Mahsulot nomi	2021-1	2021-2	2021-3	2021-4	2021-5	2021-6	yanvar-may oyida o`rtacha
Guruch	10092	10126	10124	10159	10156	10123	10130
Kartoshka	4033	4124	4231	4502	4483	3547	4153
Pomidor	10820	11567	15408	14977	10032	5553	11393
Bodring	19244	16212	16590	12271	4666	2299	11881
Sabzi	2073	2040	2181	2896	3691	6921	3300
Qovoq	2348	2660	3122	4571	6015	4445	3860
Tarvuz	3183	2767	2574	25403	15684	2969	8763
Qovun	3820	3695	3282		17297	5436	6706
Olma	9802	9846	10340	12148	14622	14942	11950
Nok	20068	21759	23934	26760	28262	27908	24782
Gilos	-	-	-	94724	29049	12379	45384
Olxo`ri	-	-	-	-	29142	10774	19958
O`rik	-	-	-	64530	26867	16930	36109
Shaftoli	-	-	-	-	43696	20088	31892
Uzum	16902	19733	24668	29830	56410	19951	27916
Limon	18647	20199	20749	22220	22847	23436	21350
Mol go'shti	59082	59243	59595	60338	61163	61628	60175
Qo'y go'shti	61937	62279	62522	63129	64142	64654	63110
Tovuq go'shti (sonlardan tashqari)	21844	22688	23023	23082	23033	23071	22790
Baliq	20817	21617	22962	25421	28081	29813	24785
Yangi sog'ilgan sut (1 litr)	5619	5713	5930	6068	6094	6141	5928
Tuxum (10 dona)	11231	10729	10373	10531	10731	10113	10618
Shakar	7360	7449	7597	7976	8372	8475	7871

Eksport va import tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foizda)

	2000	2001	2002	2018	2019	2020
Tashqi savdo aylanmasi	100	100	100	100	100	100
eksport	52,6	50,3	52,4	41,9	41,8	41,7
import	47,4	49,7	47,6	58,1	58,2	58,3
Eksport tarkibi	100	100	100	100	100	100
shu jumladan:						
paxta tolasi	27,5	22	22,4	1,6	1,6	1,0
oziq-ovqat mahsulotlari	5,4	3,9	3,5	7,8	8,8	9,5
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	2,9	2,7	3	6,5	5,0	5,8
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	10,3	10,2	8,1	19,1	14,5	4,4
xizmatlar	13,7	14,6	15,9	21,9	19,7	13,2
boshqalar	30,2	35,7	36,8	33,2	40,8	54,8
Import tarkibi	100	100	100	100	100	100
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari	12,3	10,8	12,5	8,1	7,8	10,2
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	13,6	12,7	15,1	13	13,2	16,3
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	3,8	1,9	1,3	4,5	3,9	5,2
xizmatlar	8,5	10,3	10,6	10,9	10,0	5,7


Respublikamizda 80 turdan ortiq qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilib, dunyoning 66 ta mamlakatiga eksport qilinmoqda.

Mamlakatimizda har yili 21 million tonnadan ortiq meva-sabzavot yetishtiriladi. Biroq ularning bor-yo'g'i 1,5 million tonnasi eksport qilinadi.

Mahsulotni saralash, qadoqlash, qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha 31 ta agrologistika markazi tashkil etilgan. Lekin aylanma mablag'lar yetishmasligi va doimiy mahsulot yo'qligi oqibatida ularning aksariyati mavsumiy ishlab, mavjud quvvatlardan bor-yo'g'i 10-15 foiz foydalanmoqda.

Tarmoqda mahsulot yetishtirishdan tortib, qayta ishlash va eksportga yoʻnaltirishgacha boʻlgan jarayonlar muammolardan xoli emas. Bu borada muayyan ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, bugunga qadar mamlakatimiz boʻyicha jami 41 ta meva-sabzavotchilik yoʻnalishidagi qishloq xoʻjaligi birlashmasi tashkil etildi.

Uzbekistan major export destinations (2017)






Mamlakatning ulgurji oziq-ovqat bozorlari infratuzilmasi rivojlanish darajasi qoniqarsiz bo'lib, eksport hajmini oshirishga to'sqinlik qiladigan omillardan biri hisoblanadi. Sovutgichli omborhonalar va refrijeratorlarning yetishmasligi mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa yuqori narh davrida sotish uchun mevasabzavot mahsulotlarini saqlashni amalga oshirishiga to'sqinlik qiladi. Asosiy tranzit yo'llari va chegara postlarida tez buziladigan mahsulotlarning tezkor tashilishini ta'minlash uchun jihozlangan “yashil yo'laklar” yaratish amaliyoti endigina rivojlanmoqda. Temir yo'l orqali tashish imkoniyatlaridan kam miqdorda foydalanilayapti, chunki narhlari yuqori va geografik imkoniyatlar cheklangan.



Qishloq ho'jalik mahsulotlarining sotish jarayonining nomutanosibligi tufayli, yetishtirilgan hosil to'liqicha iste'molchiga yetib bormasdan nobud bo'lishiga olib kelmoqda, o'z navbatida, bunday holatni yuzaga kelishiga agroresurslar bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi ham sabab bo'lmoqda. Dehqon va fermer ho'jaliklarida aksariyat holarda agroresurslar harid qilishda tanlash imkoniyati pastligi, mahsulot yetishtirishda zarur bo'lgan moddiy-tehnika resurslari bozoridagi monopoliya holatining mavjudligi dehqonlarni nisbatan qimmat narhda bo'lgan resursdan foydalanishga majbur qilmoqda. Bundan tashqari, agrohizmatlar bozori tomonidan ko'rsatilayotgan hizmatlarning iste'molchi talabiga to'liq javob bermasligi, hizmat narhlarining hizmatlar sifati bilan uzviyligi ta'minlanmaganligi qishloq ho'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga salbiy ta'siri ko'rsatmoqda

Strategik ustuvor yo'nalishning asosiy vazifasi qishloq ho'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini har tomonlama va barqaror rivojlantirishga ko'maklashish uchun davlat siyosati va normativ-huquqiy bazani takomillashtirishdir.

Ustuvor yo'nalishni amalga oshirishda institusional salohiyatni oshirish va imkoniyatlarni kengaytirish orqali qishloq ho'jaligi va oziq-ovqat bozorini tashkil etishni yaxshilash nazarda tutiladi.



Strategiyani amalga oshirish davrida tarmoq doirasida tahlil qilish orqali ustuvor yo'nalishlar aniqlanadi:

bozor infratuzilmasini tashkil etish ehtiyojlari

yuqori qiymatdagi meva-sabzavot va chorvachilik mahsulotlari

o'simlikshunoslik va chorvachilikda yalpi daromad

mavjud savdo va eksport modellari, hamda bozor tendensiyalari, ichki bozor kon'yukturasi va boshqalar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5853-sonli Farmoni 23.10.2019 yil
- “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlarning jismonan eskirgan va o‘z xizmatini o‘tab bo‘lgan nasos stansiyalarini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish hamda almashtirish, nasos stansiyalaridan foydalanishni va ularni boshqarishni avtomatlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1042-sonli qarori 26.12.2018 yil
- 2020 yilda O‘zbekiston Respublikasida YaIM ishlab chiqarish, Toshkent 2021 yil. Davlat Statistika qo‘mitasi
- А.Абдуғаниев , А.А.Абдуғаниев “Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти” Тошкент 2004 йил
- Ф.Жураев «Қишлоқ хўжалик корхоналарида ишлаб чиқаришни ташкил этиш» Тошкент 2004 йил

Thank You